

## Boshlang'ich ta'limda inklyuziv ta'lim va uning ahamiyati

Hakimova Marjona Iskandarzoda

O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika Instituti Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

### Annotatsiya:

Ushbu maqolada inklyuziv ta'limning vazifasi va ahamiyati hamda bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat'iy nazar ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etishdan iboratligi haqida izlanishlar olib borilgan. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo'lishlari uchun oilada yashashlari va o'z tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari lozimligi nazarda tutilgan.

### Kalit so'zlar:

Inklyuziv ta'lim, L.Vigodskiy, korreksion pedagogika, korreksion ta'lim, surdopedagogika, tiflopedagogika, logopediya, oligofreniya, eksklyuziya, segregatsiya, integratsiya, inklyuziya.

### Abstract:

This article explores the role and importance of inclusive education and the provision of quality education to all children regardless of their abilities and circumstances. At the same time, the principle of inclusion stipulates that children with limited opportunities should live in a family and study together with their peers in a regular school in order to have a positive mental and social development.

### Key words:

Inclusive education, L.Vygodsky, correctional pedagogy, correctional education, deaf pedagogy, dyslexia pedagogy, speech therapy, oligophrenia, exclusion, segregation, integration, inclusion.

### Аннотация:

В данной статье исследуется роль и значение инклюзивного образования и предоставления качественного образования всем детям независимо от их способностей и обстоятельств. В то же время принцип инклюзивности предусматривает, что дети с ограниченными возможностями должны жить в семье и учиться вместе со сверстниками в обычной школе, чтобы иметь положительное психическое и социальное развитие.

### Ключевые слова:

Инклюзивное образование, Л.Выгодский, коррекционная педагогика, коррекционное обучение, сурдопедагогика, дислексопедагогика, логопедия, олигофрения, исключение, сегрегация, интеграция, включение.

Bugungi kunda har bir fuqaro o'zining haq-huquqlarini bilib, berilgan imkoniyatlardan bema'lol foydalana olayotganligi ularning ertangi kunni o'ylab qo'rqmay yashash imkoniyatiga ega ekanligini bildiradi. Shunday ekan, ta'lim muassasalari hamda boshlang'ich ta'lim tizimidagi



bugungi kun tub o'zgarishlarini yosh avlod misolida keltirsak xato bo'lmaydi, chunki yurtimizdagi ta'lim muassasalarida o'sib kelayotgan yosh avlodlarimizning erkin ta'lim olib sog'lom ma'naviyatli bo'lishida bir qancha ko'zga ko'rinadigan ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Bunga misol tariqasida inklyuziv ta'limni keltirishimiz mumkin. Ayniqsa, bugungi kunda inklyuziv ta'limni joriy qilish zamon talabining eng muhim vazifalaridan biri bo'lib qoldi. Chunki har bir O'zbekiston fuqarosi har qanday jismoniy holatidan qat'iy nazar erkin bilim olishga haqlidir. Shu borada imkoniyati cheklangan yoshlarimizni keng qamrovli ta'lim muassasalariga qamrab olish va zamonaviy yondashuvlar asosida sifatli ta'lim olishlari davlat tomonidan kafolatlangan. Chunki har bir O'zbekiston fuqarosi har qanday jismoniy holatidan qat'iy nazar erkin bilim olishga haqlidir. Shu borada imkoniyati cheklangan yoshlarimizni keng qamrovli ta'lim muassasalariga qamrab olish va zamonaviy yondashuvlar asosida sifatli ta'lim olishlari davlat tomonidan kafolatlangan.

Inklyuziv ta'lim – ta'lim muassasalarida barcha bolalarga birdek ta'lim berish imkoniyatidir. Inklyuziv ta'lim g'oyalari ijtimoiy - madaniy nazariyalarga asoslanadi. Psixolog L.Vigotskiy (1986-1934) inklyuziv ta'lim g'oyasining asoschisi bo'lib, uning inklyuziv ta'limga asoslangan nazariyasi orqali bolalar ijtimoiy muhitda eng samarali bilim oladilar. L.Vigotskiy oliy aqliy funksiyalarning rivojlanishi ijtimoiy hamkorlikdan boshlanadi va keyin shaxsiy bo'ladi deb aytib o'tgan. Shunday qilib, bu ijtimoiy hamkorlik har doim rivojlanish va o'rganishning asosiy usuli hisoblanadi. L.Vigotskiyning ijtimoiy - madaniy rivojlanish nazariyasi pedagogning rolini aniq belgilaydi. Biz farzandlarimizni yaxshi bilishimiz va ularning o'quv faoliyatini aniqlash uchun ular bilan faol muloqotda bo'lishimiz kerak. Ko'pgina mamlakatlarda inklyuziv ta'lim amaliyoti bu nazariyaning to'g'riligini ko'rsatib berdi. Tadqiqotlarga ko'ra, alohida ehtiyojli bolalar o'z tengdoshlari bilan birga o'qisalar, o'rganishda, ijtimoiy muloqotda ancha yaxshi natijalarni ko'rsatishga moyildirlar.

Barcha bolalar inklyuziv ta'lim amaliyotidan yaxshi foyda oladilar. Odatda, alohida ehtiyojli bor bola rivojlanayotgan tengdosh bolalar bilan hir guruhda bo'lishi ularga taqlid qilishga, ular bilan muloqot qilishga, ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga harakat qiladi. Rivojlanayotgan bolalar alohida ehtiyojlari bor odamlar duch keladigan muammolarni tushunib boradilar. Ular boshqalarning ehtiyojlariga sezgir bo'lib, farqlarni yaxshiroq anglaydilar. Ular barcha odamlar muhim muammolarni bartaraf eta olishlariga va muvaffaqiyatga erishishlari mumkinligini bilib oladilar. Inklyuziv ta'limning mavjudligi bolalar bir-biridan ko'p jihatdan farq qilishini va bu farqlar to'siq emas, balki qimmatli manba ekanligini tan olish demakdir.

Inklyuziv ta'limning maktab hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi o'ziga xos xususiyatlari:

- alohida ehtiyojga muhtoj bolalarning umumiy ta'limi bilan muntazam guruhlarda pedagoglar bilan birgalikda mutaxassislar jamoasi shug'ullanadilar;
- alohida ehtiyojga muhtoj bolalarning qanchasini bir guruhga muvaffaqiyatli kiritish mumkinligini aniqlab olish zarur. Odatda, bu miqdor har bir bolaning xususiyatlari turiga va pedagogning o'z maktabgacha ta'lim tashkilotidan oladigan yordamiga bog'liq. Masalan, boshqa mutaxassislar yordami bilan pedagog faqat bitta og'ir kasallikka chalingan bolani yoki yengil tashxis qo'yilgan bir necha bolani o'z guruhiga olishi mumkin. Guruhdagi bolalar umumiy sonining 5-10 % dan ko'p bo'lmagan shtati bo'yicha alohida ehtiyojga muhtoj bolalarni ham o'z ichiga olish amaliyoti mavjud. Agar guruhda 20 nafar bola bo'lsa, alohida ehtiyojga muhtoj 1-2 nafar bolani qabul qilish;
- farzandlarining ta'lim-tarbiyasi va rivojlanishiga doir qaror qabul qilishda ota - onalar va boshqa oila a'zolari foal ishtirok etishi;



- barcha pedogoglar (guruh tarbiyachisi, maktabgacha ta'lim psixologi va defektologi, musiqa rahbari, jismoniy tarbiya yo'riqchisi) jamoa bo'lib ishlaydi va ularning sa'y-harakatlarini muvofiqlashtiradi. Qarorlar bir-biri bilan samarali hamkorlik qiladigan jamoa a'zolari tomonidan qabul qilinadi;

- maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlash individual bolaning rivojlanish xaritasi, bolalarning kuchli tomoni va ehtiyojlarini inobatga olgan holda tuzilgan;

Inklyuziv ta'lim pedagogika fanining maxsus qismlaridan biri ham hisoblanadi. Ya'ni unga korreksion pedagogikaning bir qismi sifatida ham qarash mumkin. Korreksion (maxsus) pedagogika – rivojlanishida turli psixologik va fiziologik nuqsonlari bo'lgan bolalarni tarbiyalash va o'qitish bilan bog'liq bo'lgan muammolarni o'rganadi. Shuningdek, uni yana to'rtta sohaga bo'lib o'rganish mumkin: oligofreniya, logopediya, surdopedagogika, tiflopedagogika.

Aqliy rivojlanishi buzilgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash, ijtimoiy moslashtirish va o'rganish muammolari korreksion (maxsus) pedagogikaning muhim sohasi — oligofrenopedagogika tomonidan o'rganiladi. «Oligofreniya» (yunoncha olygos — kam va phren - aql) termini XIX asrda mashhur nemis psixiatri Emil Krepelin tomonidan qo'llanilgan.

Oligofreniya — bu natal (tug'ilish payti) yoki postnatal (hayotiy rivojlanishning erta bosqichi) davrlarda markaziy nerv tizimining zararlanishi natijasida yuzaga keladigan aqliy yoki psixik rivojlanmaslik hisoblanadi.


Nutqiy nuqsonlarni o'rganish, oldini olish va korreksiya bilan korreksion pedagogika (defektologiya)ning muhim sohasi — logopediya (yunoncha logos — so'z va paideia — tarbiyalash) shug'ullanadi.

Eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash masalalari bilan surdopedagogika shug'ullanadi. Surdopedagogika (yunoncha «surdus» — kar) — eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash jarayonini o'rganuvchi korreksion (maxsus) pedagogikaning yana bir muhim sohasi.

Ko'rish qobiliyati buzilgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash xususiyatlari bilan tiflopedagogika shug'ullanadi (yunoncha «tiflos» — ko'r) — korreksion pedagogika (defektologiya)ning muhim sohasi.

Ma'lumot uchun yana shuni keltirib o'moqchimanki, nogironligi borlarning ta'limga qamrab olinishi shartli ravishda to'rtga: eksklyuziya, segregatsiya, integratsiya, inklyuziyaga bo'linadi. Eksklyuziyada nogironligi bo'lganlar ta'limdan tashqarida bo'ladi, ya'ni ular uchun ta'lim mavjud emas. Segregatsiyada ular uchun umumiy ta'limdan tashqarida maxsus o'quv muassasalari tashkil qilinsa, integratsiyada ta'lim muassasalarida nogironligi bo'lganlar uchun maxsus sinf yoki guruhlar tuziladi. Inklyuziyada esa sinf yoki guruhlarda imkoniyati cheklanish, cheklanmasligidan qat'iy nazar hamma o'qiy oladi.

Inklyuziv ta'lim alohida yordamga muhtoj bolalarni normal rivojlanishdagi bolalar bilan teng huquqlilik asosida ta'lim tarbiya olishlarini ta'minlaydi. Inklyuziv ta'lim olish jarayoni bir-biriga o'xshamaydigan, intellektual, jismoniy va aqliy xususiyatlarga ega bo'lgan odamlar maxsus bilimga muhtoj bo'lmagan tengdoshlari bilan birgalikda zarur bilim va ko'nikmalarni oladigan tarzda tashkil etiladi. Inklyuziy ta'lim-alohida ehtiyojli bolalar bilan sog'lom bolalar uchun teng ta'lim olish imkoniyatini yaratadi. Inklyuziv ta'lim vazifasi bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat'iy nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etish, shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy, ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo'lishlari uchun oilada



yashashlari va o'z tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi.

Nogiron bolalarga ularga nogiron deb faqatgina nuqson jihatdan yondashishi emas, balki bu bolalarga har tomonlama yondashish lozim. Bu esa maxsus ehtiyojli bolalar uchun ta'lim masalasini rejalashtirayotgan uning butun hayoti davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ehtiyojini hisobga olgan holda tuzishni talab etadi. Bundan tashqari, inklyuziv ta'limda nogiron boladagi mavjud nuqsonlarni bartaraf etish, korrektsiyalash, kompensatsiya qilish bilan bir qatorda bilim ko'nikmalarga ega qilish, kasb- hunarga o'rgatish ishlarini teng ravishda olib borish talab etiladi. Bu tamoyilning mohiyatida maxsus ehtiyojli bolalarga ilk yosh davrida erta yondashish ham yotadi. Maxsus ehtiyojli bolalar ta'limi boshlang'ich va o'rta-maxsus ta'limni olishlari bilan yakunlanmasligi kerak. Nogiron bolalarning kasb-hunar ta'limi va oliy ta'limi ham amalga oshirilishi talab etadi. Chunki inklyuziv ta'lim tizimining vazifalaridan biri maxsus ehtiyojli bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularning barcha huquqlarini ta'minlashdan iboratdir. Boshlang'ich sinflarda inklyuziv ta'limga ehtiyojli bolalarga ta'lim berish jarayonida ularning fiziologik, ruhiy, aqliy, jismoniy holatidan kelib chiqqan holda yondashishga to'g'ri keladi. Buning uchun boshlang'ich ta'limda faoliyat olib boradigan pedagog xodimlar quyidagilarga e'tibor qaratishlari maqsadga muvofiqdir:

I. Xususan, eshitishi zaif bolalarni yetarli savod olishlari uchun o'qituvchilar oldida quyidagi vazifalar turadi:

- Qulog'i yaxshi eshitmaydigan bolalarni nutqida, ruhiyatidagi o'zgarishlarni o'z vaqtida bilish lozim.
  - Bolaning eshitish qobiliyati darajasini bilish maqsadida zarur bo'lsa davolash uchun mutaxassis otolorengolog oldiga yuborish lozim.
  - Eng muhimi sinfda qulog'i uncha yaxshi eshitmaydigan bola borligini hamisha esda tutish va bunday bolalarni 1-partaga o'tqazib qo'yish kerak.
  - O'qituvchi sinf o'quvchilariga mavzuni tushuntirayotganda, diktant matnini o'qiyotganda o'quvchini mavzuni qanchalik fahmlaganini ko'rishi lozim.
  - Qulog'i yaxshi eshitmaydigan bolalarning ishini baholayotganda, xatolar sifatini tahlil qilganda, qulog'i yaxshi eshitmasligi tufayli xatoga yo'l qo'ygan bo'lsa, bahoni pasaytirmaslik lozim.
- O'qituvchi bolaning ota-onasiga bolaning o'qishda uchraydigan qiyinchiliklarining xususiyatlarini tushuntirish, o'quvchiga uy topshiriqlarini tayyorlashda qay tariqa to'g'ri yordam ko'rsatishi kerakligini o'qitish lozim.

II. Nutqida kamchiligi bor o'quvchilar bilan ishlashda o'qituvchi quyidagilarga e'tibor berishi zarur:

- O'qituvchi noto'g'ri talaffuz qiladigan o'quvchilarga alohida e'tibor qilishi, hamda logoped mutaxassislaridan maslahat olishlari kerak.
- Bolaning o'qish va yozishdagi xatolari uchun past baho qo'yib ranjitmaslik, unga dalda berish, uning hulq atvoridagi ijobiy jihatlarga tayanish, unga qiyinchiliklarni bartaraf qilish mumkin degan fikrni singdirish muhimdir.

III. Ko'rish qobiliyati zaif o'quvchilar bilan ishlashda o'qituvchining vazifalaridan biri:

- Agar sinfda ko'zi yaxshi ko'rmaydigan o'quvchi bo'lsa birinchi navbatda ota-onasiga murojaat qilib, uni ko'z shifokori mutaxassisga ko'rsatishni tavsiya qilish kerak.
- Ba'zida bolaning ota-onasi ko'zi ojizligini yashirishga harakat qiladilar. Oddiy maktab sharoitida ko'zga zo'r berish qanday oqibatlarga olib kelishini o'ylamaydilar. O'qituvchi bu tomonlarini ham ota-onalarga tushuntirib o'tishi lozim.



- Ko'zi yaxshi ko'rmaydigan bolalarni o'z vaqtida aniqlamaslik, ularning ulgurmasligiga, so'ngra esa ta'lim-tarbiyadagi buzilishlarga olib kelibgina qolmay, balki busiz ham ko'zdagi nuqsonni yanada og'irlashtirib yuborishiga sabab bo'lishi mumkin.

- Shuni unutmaslik kerakki, umumta'lim maktab o'quvchisi uchun oddiy bo'lgan ko'pgina mashg'ulotlar masalan egilish, qattiq sakrash, jismoniy tarbiya darsida og'irliklarni ko'tarish kabilar ham bolaning ko'rish qobiliyatiga zarar etkazishi mumkin.

- O'qituvchi sinfda ko'zi ojiz borligini nazarda tutgan holda bunday bolalar uchun alohida ko'rgazmalar tayyorlab, dars o'tishi lozim.

- Bolaning ko'rish qobiliyatini himoya qilish uchun ota-onalar bilan hamkorlikda ko'zoynak taqishni tashkillashtirish lozim.

IV. Endi aqli zaif bolalar bilan ishlashda o'qituvchining bir nechta vazifalarini ko'rib chiqamiz:

- Umumta'lim maktablarida o'qiyotgan aqli zaif bolalarni bilish faoliyati bilan sog'lom bolalar bilish faoliyatlarini farqlay bilish lozim.

- Sog'lom bolaga qo'yilgan o'quv-dastur talabini aqli zaif bolaga qo'llamaslik lozim.

- Dars jarayonlarida aqli zaif bolalarni o'zlashtirish qobiliyatiga mos keladigan vazifalar berib borish lozim.


- Bolani darslarni o'zlashtirmasligi uchun o'quvchilar o'rtasida izza qilmasdan, balki uning ayrim yutuqlarini hisobga olib rag'batlantirish choralarni ko'rish kerak.

- Umumiy aqli zaif bolalarni umumta'lim maktablarida o'qitish ishi o'qituvchi oldida ancha murakkab muammolarni keltirib chiqaradi. Bu o'rinda o'qituvchilarimiz ularning ota-onalari bilan hamkorlikda ish olib borishi, bolalarini xarakter xususiyatlarini hisobga olgan holda ular bilan dars jarayonida ish olib borish muhim ahamiyatlidir.

Inklyuziv ta'limni amaliyotga joriy etish ustida olib borilgan tajribalardan shu narsa o'z isbotini topdiki, har qanday imkoniyati cheklangan bolalarni nuqsonini ilk yoshdan o'z vaqtida aniqlab mutaxassislariga murojaat qilinsa va maktabga tayyorgarlik ishi o'z vaqtida olib borilsa, abatta, ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. Ya'ni inklyuziv ta'limning samarasi yuqori darajada bo'ladi.

O'tgan yigirma yil davomida maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalari tizimida o'qitish borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi. Ammo, inklyuziv ta'limi tizimini joriy qilish, asosan, shaharlar miqiyosida bo'lib qishloqlardagi hududlarda hali-hamon maxsus ehtiyojli bolalar ta'limdan chetda qolib ketmoqda yoki qishloqlardagi ota-onalar nogiron farzandini shaharlardagi maxsus muassasalarga qatnashlarini ta'minlash uchun qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Shuning uchun ham maxsus ehtiyojli bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etish barcha hududlarda barcha maxsus ehtiyojli bolalarni qamrab olgan bo'lishi ta'minlanishi lozim.

Albatta, nogiron bolalar uchun yaxshi bo'lgan qulayliklar normal rivojlanishdagi bolalar uchun hech bir muammo keltirib chiqarmaydi. Jismonan bog'lanishlarni yaratish inklyuziv ta'limning asosiy muammolarini hal etishga xizmat qiladi. Bundan tashqari inklyuziv ta'limda nogiron boladagi mavjud nuqsonlarni bartaraf etish, korreksiyalash, kompensatsiya qilish bilan bir qatorda bilim ko'nikmalarga ega qilish, kasb hunarga o'rgatish ishlarini parallel ravishda olib borish talab etiladi. Bu tamoyilning mohiyatida maxsus ehtiyojli bolalarga ilk yosh davrida erta yondashish ham yotadi. Inklyuziv ta'limga muhtoj bolalarni o'qitish, ularning kelajagiga befarq bo'lmaslik hozirgi kunda davlat siyosatining ham asosiy qismiga aylanib qoldi. Chunki barcha fuqarolar har qanday ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar sifatli ta'lim olish huquqiga ega.



---

**Foydalangan adabiyotlar:**

1. Babayeva D.R “Nutq o`stirish nazariyasi va metodikasi” Toshkent 2018
2. R. Qo`ng`urov, E.Begmatov, Y.Tojiyev “Nutq madaniyati va uslubiya asoslari”
3. Olimov, K. T. (2019). Introduction of dual training in the system of continuous professional education. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 7(12), 509-512.
4. Алимов, А. А., Тоиров, Б. Б., & Савриева, И. Б. (2020). Умумкасбий фанларни ўқитиш чараёнини ташкил этиш ва баҳолаш. *Science and Education*, 1(8), 199-206.